

**“BANK KREDITLARI VA MUQOBIL MOLİYALASHTIRISH
MANBALARI: XITOIY VA JANUBIY KOREYADA TADBIRKORLIKNI
QO‘LLAB-QUVVATLASH TAJRIBASI”**

*Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
Iqtisodiyot yo‘nalishi magistranti
Jo‘rayev Sherzod Shavkat o‘g‘li
+998994737897*

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi Xitoy va Janubiy Koreyada tadbirkorlikni moliyalashtirishda qo‘llaniladigan bank kreditlari hamda muqobil moliyalashtirish manbalarining samaradorligi o‘rganiladi. Tezisdagi ikki davlatning moliyalashtirish mexanizmlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning tadbirkorlik faolligini oshirishdagi o‘rni, moliyaviy risklarni kamaytirishdagi roli va innovatsion biznesni rag‘batlantirishdagi afzalliklari ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Bank kreditlari, muqobil moliyalashtirish, fintech, P2P kreditlash, ventur kapital, KODIT, KIBO, davlat kafolatlari, startap moliyalashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, innovatsion ekotizim, solishtirma tahlil.

Kirish. Tadbirkorlikni moliyalashtirish tizimi mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishida muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lib, uning samaradorligi kichik biznesning o‘sishi, yangi ish o‘rinlari yaratilishi va innovatsion faoliyatning kengayishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Rivojlanayotgan davlatlar uchun bank kreditlari asosiy moliyalashtirish manbai bo‘lib qolmoqda, biroq global moliya bozorlarida kuzatilayotgan tezkor raqamlashtirish jarayonlari muqobil moliyalashtirish shakllarining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Ayniqsa, Xitoy va Janubiy Koreya tajribasi – arzon kreditlar, davlat kafolatlari, ventur kapital, KIBO va KODIT kabi kafolat agentliklari, shuningdek, fintech asosidagi platformalar orqali tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning muvaffaqiyatli modellarini namoyish etadi.

Asosiy qism. Xitoyda tadbirkorlikni moliyalashtirish mexanizmlari. Xitoyda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning asosiy tamoyili — Inclusive Finance siyosati bo‘lib, uning maqsadi kichik biznesning moliyaviy xizmatlardan teng va arzon narxda foydalanishini ta‘minlashdir.

Bank kreditlari tizimi. Xitoyda kichik biznes uchun ajratilayotgan kreditlar hajmi yil sayin oshib bormoqda. Asosiy ko‘rsatkichlar (so‘nggi yillar kesimida):

- Kichik biznes kreditlarining umumiy hajmi: 2,3 trln dollar.
- Past foizli kreditlarning o‘rtacha stavkasi: 3–5%.
- Davlat kafolat fondlari tomonidan qoplash darajasi: 70–80%.

Xitoy bank tizimida kichik biznesni kreditlashda garovsiz kreditlar, davlat kafolatlari, subsidiyalangan foiz stavkalari muhim rol o'ynaydi. Fintech va muqobil moliyalashtirish. Xitoy jahonda eng tez rivojlanayotgan fintex bozorlaridan biri hisoblanadi:

- P2P kreditlash bozorining hajmi avvalgi yillarda 150 mlrd dollardan oshgan.
- Ant Financial, WeBank, Tencent Bank kabi platformalar raqamli kreditlashni ommalashtirgan.
- “Credit Scoring” tizimi kredit reytingini sun'iy intellekt orqali baholashni ta'minlaydi.

Xitoy modeli xususiyati: moliyalashtirishning bank + fintech + davlat integratsiyasiga asoslangan kompleks ekotizim mavjud.

Janubiy Koreyada tadbirkorlikni moliyalashtirish mexanizmlari. Janubiy Koreya jahon miqyosida innovatsion iqtisodiyot sifatida tanilgan bo'lib, kichik biznesni qo'llashda davlat kafolati asosiy rol o'ynaydi. Kafolat agentliklari faoliyati (KODIT va KIBO)

- KODIT – Korea Credit Guarantee Fund: yillik kredit kafolatlari hajmi 55 mlrd dollar.
- KIBO – Korea Technology Finance Corporation: texnologik startaplar uchun kafolatlar hajmi 20 mlrd dollar.
- Kafolat miqdori: 85–95% gacha.

Ushbu tizim garov yetishmasligi muammosini bartaraf etib, startaplar va texnologik kompaniyalarning moliyalashtirilishini osonlashtiradi.

Venchur kapital va innovatsion moliyalashtirish. Janubiy Koreya venchur investitsiyalari bo'yicha Osiyoda yetakchi davlatlardan biridir.

- 2023 yilda venchur investitsiyalar hajmi: 9,2 mlrd dollar.
- SMES Promotion Agency startaplarga grantlar va arzon kreditlar ajratadi.
- Innovatsion kompaniyalar uchun “TIPS Program” (Tech Incubator Program for Startups) mavjud.
- Fintech kredit platformalari orqali yillik 4–6 mlrd dollar mikromoliyalashtirish amalga oshiriladi.
- “Open Banking” tizimi 2019 yildan to'liq joriy etilgan.

Janubiy Koreya modeli xususiyati: moliyalashtirishni davlat kafolatlari + venchur kapital + innovatsion dasturlar bilan uyg'unlashtirish. Solishtirma tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki:

1. Xitoy modeli — raqamli texnologiyalarni moliyalashtirish tizimiga integratsiya qilgani bilan ajralib turadi;
2. Janubiy Koreya modeli — yuqori kafolat ulushi, venchur kapital bozori va innovatsion dasturlarning samaradorligi bilan ustunlik qiladi;

3. Har ikkala davlatda ham tadbirkorlikni moliyalashtirishda bank kreditlari + muqobil moliyalashtirish vositalari birgalikda ishlaydi va iqtisodiy faollikni ragʻbatlantiradi.

Xulosa. Xitoy va Janubiy Koreya tajribasi tadbirkorlikni moliyalashtirishda bank kreditlari bilan bir qatorda muqobil moliyalashtirish manbalaridan keng foydalanishning iqtisodiy samaradorligini yaqqol namoyish etadi. Xitoy modeli asosan Inclusive Finance siyosatiga, fintex platformalariga, internet-moliyalashtirish tizimiga va davlat kafolat fondlariga tayanadi. Ushbu model kichik biznesga arzon kreditlar, tezkor raqamli xizmatlar va garovsiz moliyaviy qoʻllab-quvvatlash imkonini yaratadi. Janubiy Koreya esa moliyalashtirishda kafolat agentliklari (KODIT, KIBO), venchur kapital investitsiyalari, startap grantlari va innovatsion dasturlarni samarali tarzda uygʻunlashtiradi. Ayniqsa, texnologik startaplarni baholashda garov talab qilinmaydigan “technology credit scoring” tizimi tadbirkorlikni jadal rivojlantiruvchi omillardan biri boʻlib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. World Bank (2023). Global Financial Development Report: Financial Inclusion and Fintech. Washington D.C.
2. OECD (2022). Financing SMEs and Entrepreneurs: An OECD Scoreboard. Paris: OECD Publishing.
3. PBOC (People's Bank of China, 2023). China Inclusive Finance Annual Report. Beijing.